

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 8 - 21-avgust N:32-33 (66521-22)

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar  
Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» Hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro  
xayriya jamg'armasi.



Men Parkent tumanining so'lim Shampan qishlog'idagi 18-maktabda tahsil olaman. Maktabimiz yonida yangi, zamonaviy maktab binosi qurilayotgani haqida sizlarga avval xabar qilgandim. Yaqinda qurilish maydonida bo'lib, u yerdagi ishlarning jadal olib borilayotganidan juda xursand bo'ldim. Maktabimizning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Xolmurod aka To'layev qurilish haqida menga quyidagilarni so'zlab berdilar:

ajratilgan bo'lib, «ASEL-SAN» firmasi yaqindan yordam beryapti.

Yangi o'quv yilida maktabga kelgan o'quvchilarimiz yuz-ko'zlaridagi quvonchni hozirdanoq tasavvur qilyapman. Ayniqsa, barcha qulayliklarga ega bo'lgan sport zalimizni ko'rib, sportsevar bolajonlarimizning boshi ko'kka yetadigan

## Sentabr taraddudi

## «TEZROQ KELAQOLSAYDI...»

— 2004 - 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturiga asosan, sizlar uchun 80 o'rinli yangi maktab binosi qad rostlayapti. Bino qurilishi uchun 14,9 million so'm mablag' ajratilgan bo'lib, unda barcha qulayliklarga ega bo'lgan sport zali ham bor. Binoni Rashid Soipov rahbarligidagi «Hisor tog'i» mas'uliyati cheklangan jamiyat quruvchilari juda tezlik bilan sifatli qilib qurib berishga harakat qilishyapti. Chunki yangi o'quv yilining eshik qoqishiga ham sanoqli kunlar qoldi-da.

Xolmurod aka bilan xayrlashib, bizdan 6-7 chaqirim naridagi Nevich qishlog'ida qurilayotgan yangi maktabni ham o'z ko'zim bilan ko'rgim keldi. Omadni qarangi, qurilish maydonida shu maktab direktori Qambarali aka Eshov bilan uchrashib qoldim.

— 2004-yilning 15-dekabrida boshlangan maktabimizni ta'mirlash va yangi bino qurish ishlari, mana, o'zing guvohi bo'lib turganingdek, yakunlanish arafasida. 210 o'rinli yangi maktabimiz binosi qurilib bo'ldi, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Yana 140 o'rinli eski maktabimiz ham to'liq ta'mirdan chiqdi. Nasib bo'lsa, bu yil birinchi smenada 350 o'quvchi tahsil oladi. Bu ishlarga 204 million so'm mablag'

bo'ldi-da...

Men o'zim ham shu maktabda tahsil olganman. E, qizim, u paytdagi sharoitlar bilan hozirgilari orasida osmon bilan yercha farq bor. O'tin bilan isitiladigan temir pechkalar o'chib qolardi. Tomidan chakka o'tib yotadigan sinf xonalar sovuq, loy. Hovlidagi loyga kalishlarimiz botib qolardi. Hozir esa butunlay o'zgacha manzara; maktabimiz to'liq gazlashtirilgan, hovlilari asfaltlangan, shinam va yorug' sinf xonalari, fan kabinetlari barcha qulayliklarga ega. Birgina bu emas, xo'jaligimizda joylashgan 4 ta qishloqdagi 3 ta maktab binosi yangidan qurildi. Bolajonlarimiz uchun qilinayotgan bunday g'amxo'rliklar uchun yurtboshimizga o'zim, jamoamiz, o'quvchilarim va ularning ota-onalari nomidan katta minnatdorchilik bildiraman.

Qalbim faxr va iftixor tuyg'ulari bilan to'lib-toshib uyga qaytarkanman, hademay yangi, chiroyli, barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy maktabda o'qishimizni o'ylab, ich-ichimdan quvonib ketdim. Tezroq sentabr kelaqolsaydi...

Lola TURDIBOYEVA,  
Toshkent viloyati.

## «IN»IGA QAYTGAN «QALDIRG'OCHLAR»

Men o'quvchilarni qaldirg'ochlarga, maktabni esa ularning iniga o'xshataman. Kuz oylarida issiq o'lkalarga uchib ketgan qaldirg'ochlar bahorda o'z inlariga qaytishganidek, o'quvchilar ham oradan yillar o'tsa-da, maktablariga talpinib yashaydilar. Qadrdon sinflari, mehribon ustozlarini qo'msab, tez-tez kelib turishadi.



Yaqinda poytaxtdagi 272-maktabni bundan 20 yil avval bitirib ketgan «qaldirg'och»lar yana «in»lariga — qadrdon maktablari quchog'iga qaytishdi. Qaytganda ham birlari olim, birlari fan arbobi, yana boshqalari shifokor-u muhandis, xullas, hammalari hayotda o'z yo'lini topib olgan insonlar bo'lib qaytishdi. Bu safar ular bilim olish uchun emas, qadrdon maktablarini ziyorat qilish, mehribon ustozlari bilan diyorlashish, bolalik, yoshlik davrlarini xotirlash uchun yig'ildilar. Xalqimizning bir ajoyib udumi bor: mehmon hech vaqt quruq qo'l bilan kelmaydi. Sobiq bitiruvchilar ham quruq qo'l bilan kelishgani yo'q. Olgan bilimlari va shu dargohda o'tgan sho'x-shodon damlari uchun minnatdorchilik yuzasidan o'z maktablarini jahon standartlari darajasida ta'mirlab bermoqdalar.

Hademay, ular ta'mirlab bergan maktab quchog'iga qaytadigan o'quvchilar uchun sobiq bitiruvchilar boshlagan bu tashabbus yaxshi bir an'anaga aylanib qolsa, ne ajab?!

Feruza YUSUPOVA,  
Toshkent davlat sharqshunoslik  
instituti qoshidagi xorijiy tillar  
akademik litseyining  
301-«A» guruh talabasi.



## ORIFLIK VA KOMILLIK NIMA?

Garchi ko'p gapirilgan bo'lsa-da, men yana bir bor oriflik va komillikning asosiy negizi — inson ma'naviyati to'g'risida so'z yuritmoqchiman.

Bolalik baribir bolalik-da. Inson bu davrda ayrim nojo'ya xatti-harakatlar ham qilib qo'yishi mumkin. Men onamning, «bu ishni qilsang uvol, bunisi savob», degan samimiy gaplarini ko'p eslayman. «Nonning ushog'i ham non. Uni isrof qilish — katta gunoh» derdilar. Non ushog'i yerga to'kilsa, uni ko'zga surtib chekkaga olib qo'yishni o'rgatgandilar. Ulg'aygach, oila, ro'zg'or tashvishlari yelkamga tushganda bildimki, biz non bilan birga ota-onamizning mehnatlarini ham qadrlashni o'rgangan ekanmiz. Garchi u kishi oddiy tarbiya usullarini qo'llagan bo'lsalar-da, murg'ak qalbimizga ma'naviyat urug'larini qadayotganlarini anglamagan ekanmiz. Demochimanki, inson qanday kasb egasi bo'lmasin, unga ma'naviyat eng zarur omil. Buning uchun u katta bir oliy dargohlarda tahsil ko'rishi shart emas. Asriy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga amal qilsa bo'lgani.

**Hulkar MAMATMURODOVA,**

*Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi H.Olimjon nomli 20-o'rtta maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*



Mahallamiz bolalari avvallari bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishni bilishmasdi. To'p-to'p bo'lib, bekorchilikdan zerikib o'tirishardi.

## «JO'JAXO'ROZ»LAR DO'STLASHISHDI

Qo'shni mahalla bolalari bilan tez-tez urushib ham turishardi...

Hozir esa butunlay o'zgacha manzara: mahallamizdagi saxiy insonlar ularga mo'jazgina sport maydonchasi qurib berishdi. Turli chiqindilar bilan to'lib, tashlandiq holatda yotgan maydon tozalanib,

futbol, basketbol maydonchasiga aylantirildi. Mahallamiz kichkintoylari ham xafa bo'lishgani yo'q. Ular uchun turli arg'imchoqlar o'rnatildi. Muhimi, avvallari bir-birlari bilan «jo'ja-xo'roz» bo'lib yuradigan ikki mahalla bolalari do'stlashib olishdi.

Ayni ta'til kunlarida mahallamizga kelsangiz, albatta biron bir sport musobaqasining ustidan chiqasiz. Uning tomoshabinlari esa kichik

yoshdagi uka va singillarimiz bo'lishadi. Sport to'garaklariga qatnaydigan kattaroq yoshdagi bolalar kichkintoylarga «ustoz»lik qilishadi.

Basketbol va futbol o'yinining qonun-qoidalarini o'rgatishadi.

Biz uchun shunday shart-sharoitlar yaratib bergan saxiy insonlardan ota-onalarimiz ham behad mamnunlar.



Xullas, yozgi ta'tilimiz maroqli, ko'ngilli o'tyapti. Ishonmasangiz, mahallamizga bir keling.

**Saida AZLAROVA,**  
*poytaxtdagi 316-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi.*

**Anchadan buyon O'zbekiston Respublikasi IIV ga qarashli harbiylashtirilgan maxsus maktab-internatga borishni, u yerda tahsil olayotgan bolajonlar bilan suhbatlashishni dilimga tugib yurgandim. Hozir ta'til vaqti bo'lsa-da, shu maskanga otlandim. Qani, jaji kursantlar ta'tilni qanday o'tkazishayotgan ekan?**

U yerga yetib borganimda, internat atrofida 5-6 nafar bolalar to'planib, qayoqqadir shoshib ketishardi. Ularni

— Bolaligimda xalq dostonlarini yaxshi ko'rardim. Bu bola xayolparast ekan, deb o'ylamang-u Alpomish va Go'ro'g'liga o'xshagan mard, botir sarkarda bo'lmoqchiman...

**Faxr**  
— **Harbiy deganda ko'pchilikning ko'z oldiga, urushlar keladi. Siz urushlarni qanday tasavvur qilasiz?**

— Men 10 yoshli chog'imda «Sen yetim emassan» kinosini ko'rganman.

qo'riqlaydigan bahodir posbon bo'lishni niyat qilgandim. Yaqinda Andijonda ro'y bergan mudhish voqealarni eshitib, nihoyatda ezildim. Nega odamlar tinchlikning qadriga yetmas ekanlar-a?..

Shu payt yonimizga bir odam kelib, Mirazim bilan harbiycha salomlashdi. O'zini Ulug'bek Davirov, deya tanishtirgach, «xo'sh xizmat?», degandek menga savol nazari bilan qaradi. Kimligimni, maqsadimni bilib olgach, suhbatimiz qizib ketdi. Ulug'bek aka — «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasining direktor o'rinbosari



# «MEN URUSHNI YOMON KO'RAMAN»

to'xtatib, yo'ldan qoldirgim kelmadi. Engillaridagi sport kiyimidan bildimki, bolalar biron bir sport mashg'ulotiga oshiqishardi...

Kelishilgan fursatdan biroz kechroq qolgani uchun, mashg'ulotdan qolib ketgan bir bolakayni suhbatga tortdim:

— **Bugun sport musobaqasi bormidi, deyman-a?**

— Yo'q. O'zimiz shunday, uyda zerikib qolyapimiz.

— **Ismingiz nima? Siz ham shu yerda o'qiyasizmi?**

— Ismim Mirazim, shu internatning 9-sinfida o'qiyman.

— **Bu yerda o'qish sizga og'irlik qilmaydimi?**

— Yo'q. Ko'pchilik shunday o'ylaydi. Aslida bu yerda o'qish biz uchun faxr. Bilasizmi, maskanimizda o'qiydigan o'rtoqlarimning bari kelajakda general bo'lish orzusida.

— **Siz-chi?**



O'shanda urushning qanchalar yomonligini, bolalarning yetim, och-yalang'och qolganlarini ko'rib, ko'z yoshlarimni tiyolmaganman. O'zim sezmaganda holda, qalbimda urushlarga nisbatan nafrat hissi uyg'ongan. Shunda, katta bo'lsam, bolalarning tinchligini

vazifasida ishlar ekan. U kishidan mazkur bilim dargohi haqida batafsilroq gapirib berishlarini iltimos qildim:

— Barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, — deya so'z boshladi Ulug'bek aka. — 2002 yilda tashkil topgan harbiylashtirilgan maxsus maktab-internatimizda bugungi kunda 100 nafar o'g'il bolalar tahsil olmoqdalar. Biz ularga ta'lim-tarbiya berishda Amir Temur bobomizning «Agar farzandingizning halol va mard, xalqiga fidoyi inson bo'lishini xohlasangiz, unga rost gapirishni, har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishni va o'ziga ishonishni o'rgating», — degan maslahatlariga amal qilamiz. Ular yurisprudensiya, harbiy diplomatiya, harbiy xizmatdan avvalgi boshlang'ich tayyorgarlik, jahon adabiyoti, etika, estetika, retorika, din tarixi va musulmonchilik huquqi asoslari, maxsus jismoniy tayyorgarlik (harbiy qo'l jangi kurashi, dzyu-do) kabi fanlar bo'yicha

bilim oladilar.

Shuningdek, ularning sport bilan shug'ullanishlariga ham juda katta ahamiyat beriladi. O'quvchilarimiz uchun «Jar» SSM dan foydalanish imkoniyati berilgan.

O'zingizdan qolar gap yo'q, harbiylarning vaqti juda tig'iz, har soniyasi hisobli bo'ladi. Ulug'bek akaning ham, Mirazimning ham nigohlaridan shu holatni payqadim.

Ular bilan xayrlasharkanman, atrofga, dov-daraxtlarga, maysalarga, tinimsiz sayrayotgan qushlarga, derazasini quyoshga ochgan uylarga xotirjam bir nigoh bilan boqdim. Ulug'bek akadek o'z kasbiga fidoyi insonlar, Mirazimdek urushni yomon ko'radigan kursantlarimiz bor ekan, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lishiga astoydil ishonдим.

**Ma'mura MADRAHIMOVA**  
*suhbatlashdi.*



# GO'ZALLIK ALIFBOSI

Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak:  
Yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham.

(A.P.Chexov)

«Dunyoni go'zallik qutqaradi» deyishadi. Insoniyat hamisha go'zallikka intilib yashaydi. Kishilar o'z hayotlari va tevarak-atroflarini go'zallik tamoyillariga ko'ra takomillashtirib boradilar. Barkamol avlodni orzu qilar ekan, har bir jamiyat yoshlarni go'zal xulqli, sog'lom, ko'rkam, yuksak zakovat egasi qilib tarbiyalashga harakat qiladi. Bunda ajdodlarning tajribasi va o'g'itlaridan, dunyo xalqlarining eng yaxshi an'alaridan foydalanishga intiladi.

«Go'zallik alifbosi» deb nomlangan sahifamizda o'g'il-qizlarimizning har jihatdan mumtoz va mukammal bo'lishi uchun ko'mak beradigan o'git-nasihatlar, yo'llanma va ko'rsatmalar berib borishni maqsad qilganmiz. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar kishilik jamiyatining asrlar osha to'plagan bilim va tajribasiga asoslanadi. Xalqimizda «Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur» degan maqol bor. Gazetamizning har bir sonida beriladigan qatra-qatra hikmatlar sizning go'zallik pog'onalaridan yuqori ko'tarilishingizga xizmat qilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Kiyim insonni  
issiqdan, sovuqdan,

## KIYINISH ODOBI

madaniyatining eng  
yaxshi tomonlarini

tashqi ta'sirotlardan saqlaydi. Bundan tashqari kiyinishda ochiq-sochiq yurishdan qochish, istihola qilish niyati ham mavjud. Shuning uchun havo juda issiq bo'lsa-da, kishilar butkul yechinib yurmaydilar. Iqlimga qarab kiyinish davradagilarga hurmat yuzasidan kiyinish odobini saqlash yoshlikdan odat tusiga kirmog'i kerak. Ota-onamizning, tarbiyamiz uchun mas'ul kishilarning kiyinish borasida yo'l-yo'riq va ko'rsatmalari bizni kiyinish odobiga o'rgata boradi. Agar ko'pchilik oldiga chiqayotganingizda maslahatgo'yingiz bo'lmasa, unda atrofingizga qarang. Sizga yurish-turishi, xulqi, odobi bilan yo'qadigan kishilarning qanday kiyinganiga razm soling. Ulardagi

o'zlashtiring. Ularga taassub qiling.

Hammani o'zingizga qaratish niyatida, alohida ajralib turish uchun kiyinishga harakat qilmang. Ma'naviy jihatdan kamol topib hammaning e'tiborini, ezgu ishlaringiz, yorqin iste'dodingiz, diqqatga sazovor ishlaringiz bilan o'zingizga qaratgan paytingizda ana shunday kiyinsangiz arziydi. Kiyinishda kamtarinlik, orastalik, bejirimlik, qulaylik, asosiy mezoningiz bo'lsin.



Odobing — ziynating kiyinish

## Donishmand xalq o'g'itlari

Tilingda bo'lsa boling,  
Kulib turar iqboling.

Shirin so'zli - shoh kosasidan suv ichar.

Dono so'zi - durdan ortiq.

Yaxshi so'z - ko'ngil podshohi.

Bola aziz, odobi undan aziz.

Bola - boshdan, qizni yoshdan o'rgat.

Odobli bola - elga manzur.

Odobing - obro'ying.

Yaxshi farzand - ota-ona chirog'i.

Hurmat qilsang, hurmat topasan.

O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.

Odam - oltindan aziz.

Odamga e'tibor - olamga e'tibor.

## ODOBNING BOSHI — XUSH AXLOQ

«Bo'lar bola boshidan», — deydi xalqimiz. Farzand tug'ilib voyaga yeta borgan sayin, uni qanday inson bo'lar ekan, deb barcha yaqinlari, qarindoshlari, tanish-bilishlari kuzata boshlaydilar. Farzandning eng birinchi ko'zga tashlanadigan, kishilar tomonidan baholanadigan xususiyati uning yurish-turishi va xulqidir.

Bolajonlar, siz eng avvalo, ko'pchilik orasida o'zingizni qanday tutayotganingizga e'tibor qarating. Yurganingizda lapanglab, siltanib, hovliqib yurmayapsizmi? Davrada o'tirganingizda oyoq-qo'llaringizni har tarafga tashlab, yoningizdagilarga xalaqit bermayapsizmi? Yoshi katta kishilarga ters

o'g'irilmayapsizmi? O'zingizning chug'ur-chug'uringiz bilan birovlarining suhbatiga xalaqit bermayapsizmi? U yerbu yeringizni qashlab, burningizni kavlamayapsizmi? Kattalardan avval ovqatga qo'l uzatmayapsizmi? Toqatsizlik va injiqliklar qilib, yaqinlaringizni bezor gilmayapsizmi?

Agar yuqorida bergan savollarimizga «Yo'q», — deb javob bergan bo'lsangiz, demak, sizda xushxulqli, odobli inson bo'lib yetishish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Sahifamizda berib boriladigan axloqiy go'zalliklar, yurish-turish odobi borasidagi saboqlarimiz sizga qo'l keladi.



Pokliging - sog'liging.

Tozalik - sog'lik garovi.

Toza ko'zaning suvi toza.

Toza uyda dard qolmas.

Sog'lom bo'lay desang, ozoda bo'l.

Ilm ko'pga yetkazar,

Hunar esa ko'kka.

Hunar - zar,

Hunarsiz - xor.

Qunt bilan o'rgan hunar,

Hunardan rizqing unar.

Hunarli yigit - mevali daraxt.

Hunar - tunganmas xazina.

Bilgan - bilganin ishlar,

Bilmagan - barmoq tishlar.

So'zning qudrati ulug'. Yaxshi so'zning kuchi esa yanada buyukdir. «Evi bilan so'zlaganning qurboni bo'l», deyiladi qadimiy xalq maqollaridan birida. O'mida aytilgan

## YAXSHI SO'Z — JON OZIG'I

ezgu so'z kishining ruhini ko'taradi. Unga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Yaxshi ishlarga rag'batlantiradi.

Ota-onangiz sizni yaxshi so'zlar bilan erkalasa, sizni maqtab, yaxshi gaplar aytsa, qancha yayraysiz. Inson yaxshi gapning gadosi. Demakki, kishilarga yaxshi gap gapirish juda xayrli ish.

«So'zning so'zdan farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor», — deydi xalqimiz. Yuqori baho oladigan so'z aytish uchun so'zlashuv odobini, nutq madaniyatini egallab



boring. «Rahmat», «Marhamat», «Kechirasiz», «Iltimos», «Mumkin bo'lsa» singari sehrli so'zlarni o'z o'rnida qo'llay biling. Aytayotgan gapingizning to'g'ri, tushunarli, chiroyli, jarangdor bo'lishiga e'tibor qiling.

Yomon so'zlardan qoching. Ularni lug'atingizdan butunlay chiqarib tashlang. So'kinish, haqorat so'zlari nafaqat suhbatdoshingizni xafa qiladi, balki o'z obro'yingizni ham tushuradi. Sizni madaniyatsiz, odobsiz kishilar qatoriga qo'shadi. Hamma narsani o'z nomi bilan atash, birovlariga laqab qo'ymaslik, suhbatdoshga ismini aytib murojaat qilish, sizni so'zlashuv odobingizdan dalolat beradi. Ona tilingizni qunt bilan yaxshi o'rganing. So'z boyligingizni oshirib boring. Siz bilan suhbatlashgan kishi yana suhbatlashishni orzu qilsin.

## ORASTA BO'LING!

Orastalik insonning eng muhim ijobiy xususiyatlaridan biridir. Inson dunyoga kelishi bilanoq mehribonlari uni yuvib taraydilar. Oppoq choyshablarga o'rab pokiza joyga yotqizadilar. Bola mustaqil bo'lib borgan sari u o'zida yuvinish, taranish, tozalikni saqlash ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Maktab yoshiga borganida u o'z ozodaligi uchun o'zi javob beradigan darajaga yetadi.

Aziz bolajon! Sizning har kungi ozodalikni uyushtirish tartibingiz quyidagi me'yorga mos tushadimi?

Ertalabki yuvinish: yuz-ko'zni yaxshilab iliq suv bilan sovunlab yuvish; qo'llaringizni tirsakkacha, tomoq va bo'yningizni obdon yuvish; tish cho'tkasi va pastasi yordamida tishlaringizni yaxshilab tozalash; yaxshilab artingach, sochlaringizni tartibga solish; yotish oldidan tayyorlab qo'ygan toza kiyimlaringizni kiyish va kiyilgan toza kiyimlarni iloji boricha pokiza saqlash; kun bo'yi qo'lingizni zaruratga ko'ra yuvib turish; maktabdan kelgach yechinib, toza uy kiyimlarini kiyishdan avval yana bir karra chayinib olish, agar yopiq oyoq kiyimida oyog'ingiz dimiqqan bo'lsa, uni sovunli suv bilan tozalab yuvish; oqshomda ertangi kiyimlaringizni tayyorlab, obdon yuvinib, tungi kiyimlaringizni kiyib, toza o'rinda uyquga ketish. Haftada yo'q deganda bir marta hammom qilish. Shu me'yor bo'yicha ish ko'rsangiz, siz hamma havas qilgulik pokiza inson bo'lib voyaga yetayotgan ekansiz. Sizdan hech qachon badbo'y hid taralmaydi, sizga qaraganda barchaning bahri dili ochiladi. Orasta bo'ling!





## TAMAKI QAYERDAN KELIB CHIQQAN?

Tamaki Amerikadan kelib chiqqan. Uni Yevropaga XV asrning oxirida dengiz sayyohi Xristofor Kolumb olib kelgan. 1560-yilda Lissabon saroyida Fransiya elchisi Jan Niko (tamaki tutuni tarkibidagi asosiy qismiga uning nomi berilgan) tamaki barglarini Fransiya qirolchasi Yekaterina

Medichiga hadya qiladi. Odamlar o'sha vaqtda tamaki bosh og'rig'ini qoldiradigan dori deb hisoblaganlar. Qattiq bosh og'rig'idan azob chekkan qirolchasi sovg'ani jon dili bilan oladi. Shundan so'ng bu mo'jizali o'simlik Fransiya va uning chekkasiga, keyin butun dunyoga tarqaladi. XVII asr boshida tamakini Osiyoda ham eka boshlaganlar. Hindiston, Kuba tamakizorlari butun dunyoga mashhur va ular o'z egalari haddan ziyod katta foyda keltiradi.

**Qancha sigaretni oxirigacha chekib tamom qilsang, shuncha umringni qisqartirasan.**

«2005 – Sihat-salomatlik yili»


## 600 MING QURUM ZARRASI

Tamaki 7000 ga yaqin komponentlardan iborat bo'lib, ularning ko'p qismi zaharli moddalardir. Shu jumladan, nikotin, normikotin, nikotiron, iosmin, ammiak, karbon oksidi (is gazi), vodorod, sianid, fenollar, mishyak (margimush) va hakoza.

Bir quti sigaret tarkibida taxminan ikki tomchi (125 mg) nikotin bor. Ma'lumki, ot terisi ostiga sakkiz tomchi nikotin yuborilsa, bir necha daqiqa o'tgach o'lishi mumkin. Dunyoda har o'n soniyada bittadan tamaki chekuvchi vafot etadi. Tamaki tutunining bir kub santimetrida 600 mingga yaqin qurum zarrasi mavjud. Trillionlab qurum zarralari ashaddiy kashanda o'pkasiga cho'kib qoladi, shu sababdan nafas yo'llarida og'ir kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. Saraton kasaliga uchrash xavfi ko'p marotaba ortadi. Organizmga tushadigan nikotin giyohvand moddaga qaraganda 2 marotaba tezroq, spirtli ichimliklarga qaraganda 3 marotaba tezroq ta'sir qiladi. Nikotin ma'lum vaqt davomida bosh miya tomirlarini kengaytiradi, bosh og'rig'idan azob chekkan odamlarning ahvolini yengillashdiradi, vaqtincha

og'riq bosilib qoladi. Boshida bu odamga yoqib, qisqa vaqt uning ish qobiliyati zo'r bo'ladi, ruhi ko'tariladi, ammo tamaki ta'siri tez o'tadi, kashanda yana tamaki chekishni istaydi.

Tibbiy tadqiqotlarga ko'ra tamaki chekish odamni qaritadi, umrni qisqartiradi. Odam doimiy ravishda tamaki chekkanda, uning qon tomirlari torayib qoladi, infarkt, insult, yurakning surunkali tortishib qolish xavfi kuchayadi. Qon tarkibida kislorod miqdori kamayadi, shu sababdan odamning zehni pasayadi, ortiq darajada asabiylik kuzatiladi. Jinsiy hayotda muammo kelib chiqadi va qon bosimi kuchayadi. Tamaki chekish oqibatida yuzaga kelgan yurak kasalliklari sababli o'lim soni, chekmaydigan kishilarga qaraganda ko'p foizga oshib ketadi.



**Otasi chekadi, bolasi kasal bo'ladi.**

**Tamaki chekish va vino ichish — sog'liq va obro'dan baravar kechish.**

**Kashanda — kushanda, Kashanda — kafanda.**

## Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BJSST)

MASLAHAT BERADI:

1. Har xil muammolar va tashvishlardan alahsish uchun sigaret chekish o'rniga boshqa foydali ish topsangiz, ma'qul bo'ladi.
2. Ko'nglingizni ko'tarish uchun cheksangiz, yuragingizni bo'shatish uchun boshqa yo'llarni topishingiz kerak. Masalan, fikrlaringizni yozing, hayajonga soladigan masalalarni atrofdagi odamlar bilan muhokama qiling, autotrening yoki jismoniy mashq bilan shug'ullaning.
3. Chekishni tashlashga intilsangiz, jo'ralar, qarindoshlar va qarddon do'stlar tomonidan ma'naviy yordam olishga urinib ko'ring. Bu yordam nikotinga tobelikni yengish paytida, ayniqsa birinchi haftalarda siz uchun juda muhim.
4. Ozish maqsadida cheksangiz, chekishni tashlashdan keyin parhez qilish to'g'risida fikrlab ko'ring, ovqat va badanning massasini nazorat qilish to'g'risida o'ylab, man etilgan ovqat iste'mol qilish haqidagi fikrlardan qayting.
5. Chekish o'rganish bo'lib qolgan vaziyatga yo'l qo'ymaslik uchun kun tartibini o'zgartiring, chekish o'rniga jismoniy mashq qilishga intiling. Bu sizga o'zingizni faqat yaxshi his etishgagina emas, balki semirishdan saqlanishga ham imkon beradi.
6. Uyingizda tamaki hidi, tamakidan ishlangan turli mahsulotlar, kuldon, portsigar va boshqa tamaki chekish alomatlari bo'lmasligiga harakat qiling. Dastlabki haftalarda atrofdagilardan yoningizda chekmay turishlarini iltimos qiling.

## JISMONIY TARBIYA


Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish sog'lingizni yaxshilashga, irodangizni mustahkamlashga, sodiq do'stlar orttirishingizga va hayotda maqsadga yetishingizga yordam beradi.

**XOHLAGANINGIZNI TANLAB OLING!**



## KASHANDALAR KASSALLIGI

- Soch to'kilishi
- Bosh miya qon aylanishining buzilishi
- Organizm reaksiyasining tashqi yoki ichki ta'sirga pasayishi
- Zehn pasayishi
- Ruhsizlik, hayotga qiziqishning yo'qolishi
- Zahil yuz
- Ko'zning ojizlanib qolishi
- Hid bilishning buzilishi
- Og'izdan yomon hid kelishi
- Yomon tishlar (tishning sariq-jigar rangli bo'lishi)
- Xirillagan ovoz
- Me'yorida 10 foizga oshgan yurak urishi va nafas olish
- Eritrotsitlarning is gazi bilan zaharlanishi
- Qurum bosgan o'pka
- Kashanda yo'talish
- Jigar kasalligi
- Ovqatning yaxshi hazm bo'lmasligi
- Qo'l qaltirashi
- Muskulning kuchsizlanishi
- Og'ir qadam tashlash
- Muzdek qotib qolgan oyoqlar



**SEN TAMAKI CHEKISHNI TASHLADING! BARAKALLAI!**

Butun dunyoda chekishga qarshi kompaniya o'tkaziladi. Turli mamlakatlarda kelajak avlodlarning sog'ligi uchun chekish xatarligini anglab, odamlarning, ayniqsa bolalar va yoshlarning zararli odatini yo'q qilish uchun choralar ko'radilar. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1,1 mlrd. tamaki chekuvchi bor va bu sayyoramiz katta yoshli

## CHEKISHGA QARSHI XALQARO HARAKAT

aholisining uchdan bir qismini tashkil qiladi. Ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlarda, jamoat joylarida chekish man etilgan, qoidani buzuvchilarga jarima soladilar. O'zbekistonda taxminan 3,7 mln kishi tamaki chekuvchi hisoblanadi. O'zbekiston tamakini nazoratga olish bo'yicha ishlab chiqarayotgan Ramka Konvensiyasida faol ishtirok etmoqda.

**Butun dunyoda 31-may xalqaro chekishga qarshi kun sifatida nishonlanadi.**


Noyabrning uchinchi o'n kunligi chekishni tashlash dekadasi hisoblanadi.

«... 1000 kashandadan hech biri u bilan xonada birga nafas oladigan ya'ni ayollar va bolalarni zaharlaydigan tutun chiqarishdan tortinmaydilar».

Lev TOLSTOY

«Chekishdan miya ayniydi. Bu ijodiy mehnatga to'g'ri kelmaydi».

Iogann Volfgang GYOTE





Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutishi, buyuk kelajakni yaratuvchi barkamol avlodni, yangi zamon va yangi jamiyat kishisini tarbiyalashdek, o'ta mas'uliyatli, mashaqqatli va ayni zamonada, o'ta dolzarb bo'lgan vazifani keltirib chiqardi. O'zbekiston Respublikasida «Ta'lim haqida» Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi, bu sohada qilinadigan ishlar ko'lamini va

Bu majmualar tarkibiga kirgan darsliklar «yangi avlod darsliklari» deb atalishi ham bejiz emas. 8-9 - sinflar uchun mo'ljallangan «Iqtisodiy bilim asoslari» darsliklari ayrim xorijiy mamlakatlarda namuna sifatida foydalanilayotganini ta'kidlab o'tish joiz. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Brunel Universitetida yangi mustaqil davlatlar ta'lim tizimlari uchun darsliklar yaratish bo'yicha o'tkazilayotgan seminarlarda mana shu darsliklar namuna sifatida o'rganilmoqda va shu

mos keladi. Darslikka kiritilgan tushunchalar va atamalar o'quvchilarning yoshiga va ruhiy-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlangan. Ularni yoritishda an'anaviy ma'ruza uslubidan voz kechilib, o'quvchilarga maxsus faollashtiruvchi topshiriq va savollar orqali ularning o'zlariga tushuncha yoki atama ma'nosiga tushunib yetishlariga imkoniyat yaratilgan. Agarda tushuncha yoki atama 8-9 sinflarda bolalarga tanish bo'lsa, 10-sinf

### Iqtisodiy ta'limda

II bob umumiy nazariya bobi bo'lib, unda iqtisodiyot fanini o'qitishning turli uslublari yoritilgan. An'anaviy dars o'tish uslubi bilan bir qatorda darsda o'quvchilar faolligini oshirishga mo'ljallangan turli uslublar, jumladan, «aqliy hujum», «charxpalak», «bahsmunozara», «rolli o'yinlar», «kichik guruhlarda ishlash» uslublari ham shu bobda keltirilgan.

III bob to'lig'icha dars o'tishga

# YANGI AVLOD DARSLIKHLARI

yo'nalishlarini belgilabgina qolmasdan, ta'lim sohasida o'ziga xos inqilobiy burilish yasadi. Milliy umumiy o'rta ta'limni xalqaro darajaga olib chiqish, uni jahon andozalariga mos qilib, tubdan isloh qilish — mamlakatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi.

Jamiyat hayotida olamshumul o'zgarishlar ro'y berayotgan, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti tomon tobora ilgari odimlayotgan, ta'lim tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilayotgan bir davrda, ta'limning har bir sohasi, har bir fan o'qitilishining maqsadi, mazmuni, shakllari, usullari va vositalari — uslubiy tizimi, ularga qo'yilayotgan me'yoriy talablar darajasini qayta ko'rib chiqish, takomillashtirish lozim bo'lib qoldi. Iqtisodiy ta'lim mamlakatimiz ta'lim tizimiga yangi kiritilgan fanlardan bo'lishiga qaramasdan, bu yo'nalishda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, iqtisodiy ta'lim bo'yicha yangi davlat ta'lim standarti va modernizatsiya qilingan uzluksiz o'quv dasturi yaratildi, bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazildi va ta'lim tizimiga tatbiq qilindi. Ular asosida o'rta umumta'lim maktablari uchun resurslar qo'llanmasi kitoblarini olgan o'quv-uslubiy majmualar chop qilindi.

Bu majmualarning yaratilishida

ko'rinishdagi darsliklarni yaratish davlatlar mualliflariga va nashriyotlariga tavsiya qilinmoqda.

8-sinfga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmua 2002-yilgi prezident devoni qoshidagi «Ustoz» jamg'armasi tomonidan tashkil qilingan «Yilning eng yaxshi darsligi» tanlovida g'olib chiqqani ham bejiz emas.

Yuqorida atalgan 8-9-sinflar uchun o'quv-uslubiy majmualar E.

Sariqov va B.

Haydaro v l a r t o m o n i d a n yaratilgan bo'lsa, xuddi shu mualliflar E.Sariqov bilan hamkorlikda o'rta maktablarning qolgan sinflari uchun ham darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratishga kirishdilar.

10- va 11-sinflar uchun mo'ljallangan «Iqtisodiyot va biznes asoslari» darsligi va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan uslubiy ko'rsatmalar kitobi shular jumlasidandir.

Xususan, 10-sinf darsligini oladigan bo'lsak, darslik zamonaviy interfaol uslubda dars o'tishga mo'ljallab yozilgan. Undagi materiallar amaliyotdan — nazariyaga, soddadan — murakkabga, tamoyili asosida berilgan.

Darslikdagi yondashuvlarning eng e'tiborlilaridan biri — bu darslikda berilgan amaliy vaziyatlar va ularni tahlil qilish uchun mo'ljallangan topshiriqlardir. Har bir topshiriq mavzuni yoritishga xizmat qiladi va amaliy vaziyatni o'quvchilar o'rtasida mustaqil muhokama — tahlil qilish orqali nazariy tushunchaning amaliy talqini o'rganiladi. Bu o'quvchilar iqtisodiy bilimlarining chuqurlashishiga, ularda iqtisodiy ko'nikma va malakalar shakllanishiga olib keladi.

Bu uslubni mualliflar maktab darsliklarida birinchilardan bo'lib qo'llaganliklari ham e'tiborga molikdir.

«Iqtisodiyot va biznes asoslari» 10-sinf o'quvchilari uchun darsligidagi berilgan materiallar davlat ta'lim standarti me'yoriy-talablariga javob beradi. Undagi mavzular yangi modernizatsiya qilingan va takomillashtirilgan o'quv dasturiga aynan

darsliklarida ularni takrorlash, mustahkamlash va ma'no-mohiyatini kengaytirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiyot va biznes asoslari bo'yicha oldingi darsliklarda amaliy mashg'ulotlarga juda keng o'rin berilgan. Bunda keltirilgan mashqlar, masalalar, savollar, topshiriqlar va testlar o'quvchilarning iqtisodiy bilim darajasini yanada yuqoriroq — amaliy darajaga

doir muayyan uslubiy ko'rsatmalarga bag'ishlangan bo'lib, dars ishlanmalirini tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, o'quvchilar bilimni baholash mezonlari, hamda namunaviy dars ishlanmalari berilgan. Bunda o'quvchilar darsligidagi 12 ta bobning har biridan bittadan tipik dars ishlanmasi keltirilgan.

Ushbu o'quv-uslubiy majmuasini chop qilib maktablarda foydalanish uchun tarqatilishi mamlakatimizda iqtisodiy ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi, desak mubolag'a

bo'lmaydi. Buni joylardagi maktab o'qituvchilari, o'quvchilari, ota-onalar, uslubiy o'tchi mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovnomalari natijalaridan ham ko'rishimiz mumkin.


Darslik va o'qituvchilar kitobi foydalanilayotgan davrda maktab o'quvchilari va uslubiy o'tchi mutaxassislar tomonidan ko'plab iliq fikrlar bildirildi. Ular bu kitoblarning juda ko'p ijobiy jihatlari orasida ularning

sodda va ravon tilda yozilganligini, o'quvchilarni faollashtiruvchi topshiriqlarga boyligini, o'ziga xos original dizaynini ajratib ko'rsatganlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi uchun yaratilgan «Iqtisodiy bilim asoslari» va «Iqtisodiyot va biznes asoslari» o'quv-uslubiy majmualari nafaqat mamlakatimizda, hatto ayrim qo'shni mamlakatlarda ham ta'lim tizimida keng foydalanilmoqda. Jumladan, Qirg'iziston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikalarida ushbu darslik va qo'llanmalar o'zbek maktablarida keng qo'llanilmoqda va mualliflarga shu Respublikalarda darsliklar yaratishda ishtirok etish takliflari tushmoqda. Buni ham mamlakatimizning darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish bo'yicha ilg'or mamlakatlar qatorida ekanligiga dalolat, deb hisoblash bo'ladi.

Agar mamlakatimiz ta'lim tizimida mana shu tipdagi nostandart, qiziqarli va sermazmun kitoblar sonini ko'paytirsak, bu o'quvchilarimiz bilim darajasining ortishiga, ularning kelajakdagi amaliy faoliyatiga tayyor bo'lishlariga, ularning har qanday hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga qaratilgan yana bir katta qadam bo'lar edi.

Hikmat ABDULLAYEV.



darslik va qo'llanmalar yaratish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribasidan keng foydalanildi. Bu kitoblardagi materiallarni yaratishga bo'lgan zamonaviy yondashuv, o'quvchilar faolligini oshirishga yo'naltirilgan interfaol uslubiyot, kitobga o'ziga xos yorqinlik kasb etuvchi original dizayn, o'quvchilar uchun darsni qiziqarli qilishga yordam beruvchi qo'shimcha materiallar, amaliy vaziyatlar tahlili uchun matnlar va topshiriqlar, ularni boshqa darslik va o'quv qo'llanmalaridan alohida ajratib turadi.

ko'tarishga imkoniyat yaratadi.

Iqtisodiy masalalarga xos bo'lgan munozaralilik tamoyili bu topshiriqlarda aks etib turgani seziladi.

Darslikning bezalishi va dizayni ham boshqa darsliklarga qaraganda keskin ajralib turadi. Boshqa asosiy matn bilan bir qatorda iqtisodiy tushuncha va atamalar tizimi parallel ravishda berib borilgan. Ushbu tushuncha va atamalarining ajratib ko'rsatilishi ularga o'quvchining diqqatini jalb qilishni osonlashtiradi.

Darslikning yana katta qismini egallagan «amaliy vaziyatlar» qismi ham o'ziga xos holda joylashtirilgan. Har bir amaliy vaziyat uchun alohida foto tasvir berilib, ular amaliy variantning ma'nosiga mos tushadi va bu vaziyatni tasavvur qilishni o'quvchiga osonlashtiradi.

10-sinf uchun «Iqtisodiyot va biznes asoslari» o'quv-uslubiy majmuasining yana bitta elementi bu o'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar kitobidir. Qo'llanma uchta bobga asoslangan bo'lib:

I bobda iqtisodiy ta'limning maqsad va vazifalari yoritilgan. Bu bobda o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalariga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari talablari to'lig'icha keltirilgan. «Iqtisodiyot va biznes asoslari» fanining o'quv dasturi ham shu bobda o'rin olgan. Bu bobda 10-sinf uchun «Iqtisodiyot va biznes asoslari» fanining dars soatlari taqsimoti va o'quv rejasi ham berilgan.



Maftunkor va fusunkor tabiat. U bizni o'z jilvasi, «nozu karashmalari» bilan yam-yashil bag'riga chorlayveradi, chorlayveradi...

Hech payqaganmisiz, inson bir necha kun tabiat qo'ynida bo'lib qaytsa, kayfiyati ko'tarilib, o'zini yanada bardamroq, tetikroq his qilishini? Go'yo har ishga qodirdek sezadi o'zini. Yuragi hapriqib, baralla hayqirgisi, she'rlar yozgisi keladimi-ey?..

Ushbu sahifamizga jamlangan she'r va hikoyalar, topishmog'-u rasmlar mualliflari ham tabiat go'zalliklaridan ilhomlanib, qo'llariga qalam olishgan bo'lsa, ne ajab?!

## ONA YER NOLASI

Tun pardasin titratar alla,  
Eshitaman ona ovozin.  
Armon to'la qalbida nola,  
Shunday ma'yus, shunchalar hazin.  
Qay bir ona ko'ksi to'la tig',  
Nega uning boshi buncha xam?  
Falak baxtni tutdimi darig',  
Yo, bardoshin kemirdimi g'am?  
Quloq solsam ona yer pinhon,  
Hasrat bilan ingrar dam-badam.  
Faryodiga qo'shilar osmon,  
Ko'z yosh ekan aslida shabnam.  
Sekin kuylar: — Alla, bolama,  
Og'iz-burnim to'lguncha qon, — deb.  
Oh bolama, alla bolama,  
Mendan tonib bormoqda jon, — deb.  
Bulut bo'lib ko'kka o'ralgan,  
U aslida mening dardim der.  
Qoni bilan shafaq bo'yalgan,  
Senmas, quyosh mening g'amim yer.  
Oh, bolama, qaysar bolama,  
Dardga malham bo'lasan qachon?!  
Bo'g'zimda qotdi nolama,  
Bo'lgin deya Hazrati INSON!

Shahnoza RAVSHANOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi  
2-ixtisoslashtirilgan maktabning  
7-«V» sinf o'quvchisi.

## «BAXT QUSHLARI» UCHIB KETISHDI

Erta bahorda sodir bo'lgan bir voqea hecham yodimdan chiqmaydi: biznikiga Zuhra buvijonim mehmon bo'lib kelgandilar. Ayvonda choy ichib o'tirgandik. 2-3 ta qaldirg'och boshimiz uzra aylanib uchaverdi.

— Qara bolajonim, sizlarnikiga baxt qushi uchib keldi, — dedilar buvijonim boshimni mehr bilan silab. — Judayam chiroyli-a?..

Buvijonim biznikida bir haftacha yashagan bo'lsalar, shu vaqt ichida haligi qaldirg'ochlar ham hovlimiz uzra charx urib uchaverishdi...



Bir kuni tog'am kelib buvijonimni uylariga olib ketdilar. Uyimiz huvillab qoldi. Aziz narsasini yo'qotgan odamdek, tomog'imga bir nima tiqilib, yig'lagim kelaverdi. E'tibor bersam, har kuni hovlimizda uchib yurgan qaldirg'ochlar ham

Maqsudjon TO'YCHIYEV,  
Toshkentdagi 249-maktabning 4-sinf o'quvchisi:

ko'rinmay qolishibdi. Ular ertasi kuni, indiniga ham kelishmadi. Men qaldirg'ochlarni kutib yashadim, lekin ulardan darak bo'lmadi. Shunda ota-onamdan, buvijonimni olib kelaylik, deya iltimos qildim. 90 yoshni qoralagan farishtadek buvijonim bilan birga uyimizga baxt qushining yana qaytib kelishini juda-juda xohlardim. Chunki shu yoshlarida ham lotin, arab va kirill yozuvidagi gazeta va jurnallarni bemalol o'qiy oladigan buvijonim bilan hech zerikmaymanga. O'zlari o'qimishli, ziyoli bo'lganlari uchun ham tog'alarim va xolalarimni ham o'qimishli qilgan ekanlar. Amerikada tarjimon bo'lib ishlab kelgan tog'amning aytishlaricha, o'zga yurtlarda buvijonimni, ularning qaldirg'ochlarini juda sog'inibdilar.



## Flora va fauna



Sarvar va Sherzod SA'DULLAYEVlar,  
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi  
1-umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-sinf o'quvchilari:

Assalomu alaykum, qadri «Tong yulduzi»miz! Ko'p sonli o'quvchilarning qatori biz ham sening ashaddiy muxlisingimiz. Har bir soningni intiq kutamiz. Ishonasanmi, seni birinchi bo'lib o'qish uchun sinfdoshlarim orasida hatto janjallar ham chiqib turardi. Shunda adabiyot o'qituvchimiz bizni tinchlantiradilar va hammamiz birgalikda sening mutolaangga kirishib ketamiz.

Har kimga har xil sahifalaring yoqadi. Masalan biz ikki do'stga hayvonot va nabotot olami haqidagi sahifang juda yoqadi. Chunki biz ham tabiat shaydosimiz-da. Hozir ko'proq vaqtimiz tabiat qo'ynida o'tyapti. Qo'limizga qog'oz, qalam olib jonivor va hasharotlarning rasmini chizishga

harakat qilyapmiz. Ulardan ayrimlarini senga jo'natyapmiz. Rasmlarimiz tengdoshlarimizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.



## TARVUZ


Yo'l-yo'l to'nimni kiyib,  
Chiroyim qilib ko'z-ko'z.  
Qovunning qarindoshi,  
Mendirman shirin tarvuz.  
Rangim yoqar o'zimga,  
Yarmim yashil, yarmim oq.  
Bol va sharbat ichimda,  
Alvondek rangimga boq.



Dilrabo DO'STQOBILOVA,  
poytaxtdagi 118-maktabning  
7-«A» sinf o'quvchisi.

Tabiatni onalarga qiyoslaymiz. Bu juda to'g'ri ta'rif. Chunki u bizni xuddi onamizdek suyub, ardoqlaydi. Onalar bor mehrini farzandidan ayamagani kabi u ham bizga borlig'ini beminnat baxshida qiladi...

## TABIAT VA BIZ



Biz insonlar-chi, tabiatning bu mehribonchiligi evaziga qanday javob beryapmiz? Tog' bag'ridagi so'lim go'shalarini, yam-yashil qir-adirlarini payhon qilyapmiz. Daryo-yu ko'llarini cho'l-u biyobonga aylantiryapmiz. Hayvonot va nabotot olamiga zarar keltirib, ne'matlarini oyoqosti qilyapmiz. Ko'chalarni, bekatlarni, ariq va anhorlarni chiqindixonaga aylantiryapmiz.

Dilafro'zbonu USMONOVA,  
Toshkentdagi 169-maktab o'quvchisi:

Axir, azaldan ota-bobolarimiz ham poklik, ozodalik, saranjom-sarishtalikni ulug'lab kelishgan-ku! Nega endi atrofimizda ro'y berayotgan bu kabi inson nafratini qo'zg'aydigan holatlarga bunchalar befarq bo'lib qoldik? Siz-u bizning «menga nima?» qabilida ish tutishimiz, loqaydligimiz natijasida ona tabiatimizning chekayotgan aziyatidan nahot bexabar bo'lsak?..

Keling azizlar, ona tabiatimiz boyliklarini, musaffoligini, har bir giyohini o'zimiz uchun ham asraylik. Shundagina TABIAT ham bizdan rozi bo'ladi.

Muqaddas tong otdi, orzularday oq,  
Yana oqshomgacha chekindi mudroq.  
Tonggi shabboda der yuzim siypalab:  
— «Dunyo kez, hayot ko'r, zamonaga boq!».  
So'ngra yetaklaydi baland qir tomon,  
Gulzorlar gashtidan deganday quvon.  
Maysa giyohlarni tebratib aytdi:  
«Go'zallikni abad asragil inson!»  
«Bu jonli tabiat senga hamnafas,  
Bepoyon borliqqa yasama qafas.  
Muqaddas tuproqni, suvni, havoni,  
Pokiza saqlagin, bulg'amagin, bas!»  
Uzoq suhbat quridik adirda yolg'iz,  
O'tloqlarni quchdim, yerga cho'kib tiz.  
Axir, bir onaning farzandlarimiz,  
Qavmu qarindoshimiz — tabiat va biz.

## ENG YO'G'ON DARAXT

Dunyodagi eng yo'g'on daraxtlar Sitsiliyaning Etna tog'ida o'sayotgan kashtan (qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt) va Turkiyada o'sayotgan chinordir. Kashtanga qachonlardir chaqmoq tushgan bo'lib, shundan keyin ham tanasining diametri 51 metrni tashkil etadi. Chinor tanasining diametri esa 42 metrga yetadi.



## ENG BALAND DARAXT

Dunyodagi eng baland daraxt Kaliforniya shtatidagi (AQSH) xiyobonlaridan birida o'sayotgan «Govard Libbi» deb nomlangan daraxtdir. Uning balandligi 110 metr ekan.

Ravshanbek NAXSHVANDOV,  
Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi  
12-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Mening halidan beri jonimni qiynab ishlayotganimga Yo'ldosh Eshbek endi e'tibor qildimi, jimib qoldi. Uniyam g'ayrati qo'zidimi, har tugul «men boray» deb o'rnidan turdi, xayrlashib, orqa-oldiga qaramay, uppa-uzun bo'lib keta boshladi. Shu payt hayratdan hang-mang bo'lib qoldim. Oqtosh Yo'ldosh Eshbekka kelgandayam, ketgandayam Boymurod akaga tashlanganidek tashlanmadi-da. Nomiga bo'lsayam «ak...» deb qo'ymadi. Yo oppoq kiyimdaligini ko'rib «o'zimizdan ekan» deb o'yladimikin? Yo tanirmikin? Yo'ldosh Eshbekni orqasidan to'xtatib: «Mabodo manovi it sizdanmasmi» deb so'radim. Uyam bolaxonador qilib: «Bizdanmas, o'limdan xabarim boru, aka itdan xabarim yo'q», dedi. Bundan chiqdi, Yo'ldosh Eshbek it yog'i yalamagan, it go'shti yemagan. Agarda shunday bo'lganda Oqtosh uni tinch qo'ymasdi. Tavba, qanday qilib bilishi mumkin-a? Ko'ziga ko'rinarmikin?

Xullas, bu Oqtosh deganlari yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, ishqilib men uchun bir jumboq bo'ldi. Hoynahoy bu it nima bo'lgandayam yaxshi bir odamning tarbiyasini olgan ko'rinadi. Egasi bilan sayru sayohatga chiqqan-u adashib qolgan, bechora. Balki uni ataylab adashtirib ketishgandir. Shaharda nima ko'p — buzilayotgan uylar ko'p.

## TUNGI TASHVISHLAR

Darhaqiqat, Oqtosh tarbiya ko'rgan it chiqib qoldi. Itlarga o'xshab suqatoymas. Bo'lar-bo'lmasga akillab, asabni buzmaydi. Ertalab Boymurod akaga bir jag' urdiyu, shundan keyin miq etmadi. Kechga dovur u yoq-bu yoqqa ham ketib qolmadi. Tomorqadan nariga chiqmadi. Ko'z oldimda iskananib, nari borib, beri kelib yuraverdi. To'g'ri, u bilan osh-ovqatni bo'lashishga to'g'ri keldi. Endigi kelganimda Oqtoshniyam g'amini yeb kelishim kerak. Suyak-sayoqlar itning joni. Biz ularni axlatga tashlab yuboramiz. Bog'imdagi yaxshi tashvishlar yoniga yana bittasi qo'shilgan edi...

Bugun kun kech bo'lganiniyam sezmay qoldim. Quyosh tog' orqasiga o'tib, dara ichini ko'lanka qoplay boshlabdi. Qibla tarafdan muzdekkina shamol qo'zg'olgan edi. Kun bo'yi

terlab-pishib ishlaganim uchunmi, yotib, dam olishni o'ylab, huzurlanib ketdim. Allohim qanchalar mehribon. Qur'oni karimda «Va uyqularingizni rohat qilib qo'ydik», deydi. Bu yerda chalg'iydigan na televizor, na radio bor. Mazaning mazasi...

Qorong'i tushmasdan so'ri ustiga chodir tikdim. Uning ichiga buklama karovatni yoydim. Kulgili-a, karavot ustida karavot! Ko'rpa-to'shaklarni to'shab, ichiga kirishga tayyor qilib qo'ydim. «Uyi yo'qning, chirog'i yo'q», deganlaridek bu tomonlarga hali sim tortilmagan.

Shu payt miyamda nimadir yarq etib ketdi. Ota-bobolarimiz mana, nimaga sog'lom bo'lishgan. Yorug'ning ishlarini yorug'da bitirib, kech kirishi bilan uxlashgan. Erta yotib, erta turishgan. Kun chiqib yoyilguncha, g'aflat bosib yotishmagan. Biz-chi, ishdan horib-charchab kelamiz, televizorga tikilganча ovqatlanamiz. Taomni qoringa yedikmi, televizorning ichigami, farqi yo'q. Nimagadir bunaqa paytda hamma kanallarda ur-yiqit, o'ldim-kuydim seriallar boshlanadi. Naridan beri ovqatlanib, butun borlig'imizni televizorga topshiramiz. Go'yo buni dam olish deb o'zimizga o'zimiz taskin beramiz. Axir ko'z ham dam olishi kerak-ku. Yurakchi, yurak? Kinolarning turgan-bitgani yurak o'ynog'i bo'lsa! Kimdir odamlarga kishi bilmas, asal deb zahar yalatayotganga o'xshaydi. Yana gap-gashtaklarda nimagadir buyuk allomalar tug'ilmayapti-y'a, deb zorlanib ham qo'yamiz.

Shunaqa gaplar... Toqqa chiqib olgandan keyin pastga qarash oson... Dastlab bu yerda ham uyqumni topolmay yurdim. Ko'rpaga kirib, chodirning bir chekkasini ochib, osmonga tikilaman. Yulduzlar katta-katta. Xuddi bir terak bo'yi tepada turganga o'xshaydi. Shaharda ko'zingni yirib-yirtib ham bu yulduzlarni ko'rolmaysan. Minglab mashinalarning dudburonlaridan chiqqan gazlardan to'lin oy ham kasalmand ko'rinadi. Qarab, ko'zing yayramaydi. Bu yerda-chi, oymoma naq oppoq paxta. Ichidagi obkash ko'targan odam bo'lsa, jon bitib, mana, mana chiqib keladigandek. Yana yulduzlar orasida bir yulduzning sirg'alib borayotganini ko'rib qolaman. U yulduzmas, sun'iy yo'ldosh...

Bolaligimda kechalari berkinmachoq o'ynab yurganimizda, uchar yulduzlarni ko'p ko'rardim. «Yulduzlar, hay yulduzlar, bolalar qayga bekindi, aytinglar», derdik. Birdan yulduz uchib, bir tomonni ko'rsatardi. Biz o'sha yoqqa yugurib ketardik,

berkinganlarni topib ham olardik. Oppoqbuvim yulduz uchishini mana bunday deb ta'riflab bergan edilar: «Shayton osmonning qorniga qulog'ini qo'yi-ib, farishtalardan gap o'g'irlamoqchi bo'ladi, yulduzlar toshga aylanadida, ha, bachchag'ar, ket deb uni quvib soladi». Hozir shayton gap o'g'irlashni bas qilganmi, yo unga otildigan toshlar tugaganmi, ishqilib yulduz uchishini tog'dayam kam kuzataman.

Bugungi tun juda besaranjom bo'ldi. Yarim kechadayoq qandaydir shovqindan uyg'onib ketdim. It akillardi. Tog'da kechalari havo yanayam tiniqlashadi, maysalaru dovdaraxtlar shudringda cho'milib, olam


unga jo'r bo'lguchi edi. Qulog'i karmikan-a? Oqtoshga qo'shilib nomiga bo'lsayam akillab qo'ymasdi u.

Oxiri, toqatim toq bo'ldi. Yotolmadim. Nima qilsam ekan-a? Oy tog' orqasiga o'tib ketgan. Osmon to'la yulduz biri olib, biri qo'yib yaraqlashadi. Oqtoshning ovozi naq osmon gumbaziga urilib qaytayotgandek.

Bir ko'nglim Oqtoshlab, chaqiray dedim. Yarim kechadaya? Shundog'am namozga azon chaqirsam ba'zilarga yoqmayman-ku. Fikrimdan qaytdim. Ovoz bersam, qo'shnilar it meniki ekanini bilib qolishadi.

## OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



shaffoflashadi. Tiq etgan ovoz aks-sado beradi. Itni tanidim, Oqtosh! Yana u shu atrofda emas, bog' hovlining qaysidir burchagida akillayapti. Ovozi qurg'ur qo'ng'iroqqa o'xshaydi.

Uyqum o'chib ketdi. Tavba, kun bo'yi atrofimdan nari ketmadi. Endi yarim kechada u yoqlarda nima qilib, izg'ib yuribdi? Ha, birorta sigir podadan adashib, qolib ketgan bo'lsa kerak. It itligini qiladi-da. Boshimni ko'rpaga burkayman. Ammo Oqtoshning ovozi tobora asabga tega boshlaydi...

Nimanidir tiriqtirib quvdimi, shamol ovozi boshqa yoqqa olib ketdi. Xayriyat-e! Ammo bu jimlik uzoqqa bormadi. Yana akillay boshladi. Obbo! Sabr-kosam toshdi. Kechasi uxlamaydigan odati bor ekanku bu itni. Shahardan bir kun bo'lsayam tinchgina uxlay, deb chiqqan edim. Qorovulning iti xo'p zo'r it ekan-da. Na kunduzi, na kechasi xo'ja ko'rsingayam «ak...» deb qo'ymaydi jonivor. Tepaning tagida miq etmay yotgani-yotgan. Odatda bitta it akillasa, boshqasi

Qattanam og'rimagan boshimga Oqtoshni orttirib oldim?!

Yodimga bolaligim tushdi. Karim aka deganlari bo'lardi. Kolxozning poliziga qorovullik qilardi. Iti zanjirini uzib ketsa: «Kampirlarga turshak, itlarga hushtak» derdi-da, chiyillatib bitta hushtak chaldirdi. Hushtagi tugamasdan iti oldida paydo bo'lib qoldi. Meniyam shundan bo'lak ilojim qolmadi. «Kampirlarga turshak, itlarga hushtak» dedim-da, hushtak chaldirdim. Tavakkalda. Voy bo'-o'... O'zimning hushtagimdan o'zim qo'rqib ketdim. Xuddi osmondan bomba tushib kelayotgandek chiyillab ketdi-da o'ziyam.

Poliz qorovuli Karim aka baloni bilar ekan. Hushtak ish berdi. Oqtoshning uni o'chib, saldoyoq shatir-shutir qilib yetib keldi. Hushtagimni taniganini ayting. Bo'lmasa, yaqin yigirma, o'ttiz yil orasida hushtakbozlik qilmaganman. Oqtosh hushtagimga o'rganmagan. Bu it meni savdoyi qilib qo'ymasa edi.

— Bor, kir uyingga, yot! — dedim jahl bilan. Keyin chiqib

Erkin MALIKOV

ketmasin, deb omonat eshikni yopib qo'ydim. Olam tinchidigoldi. Lekin qani endi uyqu kelsa...

## JINLAR

Sal ko'zim ilingan ekan. Yana itning akillashidan uyg'onib ketdim. Tong yorishib borardi. Sal bo'lmasa, bomdodni qazo qilar ekanman. So'ridan shoshib tushsam, sim devorning narigi yog'ida shipdek bo'lib Boymurod aka turibdi. Sim devorning bu yog'ida Oqtosh. Naq «bu yoqqa kirsang g'ajiyman», deb irillab turibdi. Men Boymurod akaga namozimni o'qib olay ishorasini qildim. U kishi tushunib, nari ketdi. Oqtosh tinchidi.

Bomdodni o'qib bo'lganimdan keyin, saldoyoq kunbotar tarafdagi cho'qqilarning uchi olovlandi. Bu yerda men quyoshning chiqayotganini yoki botayotganini qarama-qarshi tomondagi tog'larning cho'qqilaridan bilib olaman. Bo'lmasa, ikki tog' oralig'ida bomdodni boy berib, shomni erta o'qib qo'yish mumkin.

Xotirjam bo'lib olgach, Boymurod akani izlab qoldim. Sahar mardondan nimaga kelibdiykin? Biron ishi bormikin? Bir hisobda yaxshi bo'ldi, kelgani. Bo'lmasa, g'aflat bosib bomdodni boy berar ekanman. Aslida, Boymurod akani turg'azib, Oqtoshni akillatib, meni bomdodga uyg'otgan ham Ollohning o'zi-ku!

Tashqariga chiqib Boymurod akani izlay boshladim. Hov naridagi tut tagida cho'nqayib o'tirgan ekan. Ko'rib yonimga keldi. Xotirjamgina qo'l olib so'rashdik. Men u kishiga tinchlikmi, degandek qaradim. Nimagadir, judayam horg'in ko'rinardi. Uyqudan turgan odamga ham o'xshamaydi. Chigitdek ko'zlari kirtayib ketibdi. Sezdimki, bir joyi og'riyapti. Hoynahoy, qomidir. Kechasi bilan «uzun borib, uzun kelganga» o'xshaydi, bechora. Oshqozonida yarasi bor-da bu kishini. Bu dardniyam podachilikda orttirib olgan. Tog'u toshlarda ochin-to'qin qolib shunday bo'lgan. Podachi o'z qornini o'ylasa, podasi och qoladi. Shunisiga chidaganlar podachilik qiladi. Podachi zoti borki, yo o'pkadan ketadi, yo qorindan. Bular Boymurod akaning gaplari. Bir amallab, it yog'i bilan o'pkani asrab qolgan ekan. Qorni esa chatoq. Shundan ketib qolamanmi, deb qo'rqib yuradi, bechora.

(Davomi bor.)



# YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR, MUAMMOLAR

Dunyo darchasi




Qiziquvchanlik bolalarga xos odat. Shundanmi yo boshqa sababmi hammadan ham ko'proq savolni bolalar berishadi. To'g'rimi, bolajonlar? Sizning qiziqishlaringiz osmon kabi bepoyonki, ba'zida ularning ham chekchegarasi bormikan, deya o'ziga to'lgan. Albatta, hech narsaga qiziqmagandan ko'ra, ba'zida o'zingizni qiziqtirgan savollar bilan kattalarni «boshini qotirib» turganingiz ma'qul. Agar savollaringizga javob topa olmasangiz, bemalol sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ga maktub yo'llayvering. Savollaringizga imkon boricha javob beramiz. Bugun «Dunyo darchasi» ruknimiz orqali Sizlarga amerikalik tengdoshlaringiz haqida ma'lumot berishni lozim topdik. Ularning ham xuddi Siz kabi o'z muammolari, kamchilig-u yutuqlari bor ekan. Qiziqsangiz, o'qib ko'ring. Buning uchun ozginagina vaqt Sizdan, ma'lumotlar esa bizdan.

## KOMPYUTERCHI IXTIROCHILAR

Ma'lumotlarga ko'ra, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan Amerika bolalarining 90 foizi kompyuter dasturlaridan to'liq, 59 foizi esa internetdan bemalol foydalana oladilar. Bu ko'rsatkichlardan yana shu ma'lum bo'ldiki, 5 yoshli bolakaylarning to'rtidan bir qismi, 10 yoshli bolalarning 60 foizi, 16 yosh va undan kattalar orasida kompyuterni mukammal biladiganlar soni 80 foizni tashkil etar ekan.

AQSHdagi deyarli barcha maktablar global tarmoqqa ulangan.

O'quvchilar kompyuter saboqlarini faqatgina maktabda o'rganibgina qolmay, uylarida o'z shaxsiy kompyuterlarida ishlashni ham ma'qul ko'radilar. Ular maktabdan uyga qaytganlaridan so'ng, uyda bekor o'tirmay, kompyuterda turli ixtirolar yaratishga harakat qiladilar. Hattoki, ba'zi bir o'quvchilar kompyuter dasturlarini o'z ustozlaridan ko'ra mukammal bilishar ekan.



## 2010-YIL HADIGI



Hozirda ortiqcha vazn Amerika bolalarini ko'proq tashvishga solmoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Qo'shma Shtatlarda hali yoshiga to'lmagan bolalar, ya'ni bir necha oylik chaqaloqlar ham parhez qila boshlaganliklari aniqlandi. Feeding Infants va Toddler Study tadqiqotlariga qaraganda, Amerika bolalari tarkibida yog', shakar va tuz bo'lgan mahsulotlarni juda ko'p miqdorda, meva, ko'katlarni esa kam miqdorda iste'mol qilishar ekan. Ushbu ma'lumotlar San-Antonio va Texasda bo'lib o'tgan konferensiyada taqdim qilingan.

Olimlarning aniqlashlaricha, 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan kichkintoy amerikaliklarning 30 foizi bir kunda 950 kaloriyalik mahsulot o'rni 1220 kaloriyalik mahsulot iste'mol qilishmoqda. Tekshiruvlarga qaraganda, 292 mln. amerikaliklarning 31 foizi semizlikdan aziyat chekmoqda. O'z vaznlaridan taxminan 14 kg ko'p ekanliklari ular uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu holda 2010-yilga borib 68 mln. amerikaliklar ortiqcha vaznga ega bo'ladilar. Pediatri Jodi Shildning fikricha, ota-onalar o'z farzandlarining kundalik iste'mol qilayotgan ovqatlarini nazorat qilib borishlari zarur ekan.

Matematika bo'yicha **TUSHLIK UCHUN 11.45 DOLLAR** tekshirish uchun aniq va yagona amerikalik o'quvchilarning o'lashtirish ko'rsatkichlari past darajada ekan. Brown Center on Education Policy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oxirgi 10 yil mobaynida 17 yoshdagi o'quvchilarning matematikani o'lashtirishlari pasayib ketgan. Shahar maktablarida o'quvchilar bilimi qoniqarli bo'lsa-da, ammo qishloq o'quvchilarida bu borada kamchiliklar borligi aniqlangan.

O'quvchilarning bilim darjasini aniqlash uchun ma'lum vaqt ajratilgan. Ana shu vaqt mobaynida ular ushbu masalani yechishlari vazifa qilib berilgan. Masala sharti quyidagicha:

«Siz tushlik uchun ofitsiantga 11.45 dollar to'ladingiz va bundan 15 foizini «choy haqi» uchun bermoqchisiz. Shunda siz tushlik uchun jami necha pul to'laysiz?»

Bu masala javoblarini olimlar ko'rib chiqqach, shunday xulosaga keldilar. 1990-yildan buyon Amerika o'quvchilarning matematika sohasidagi bilimi sezilarli darajada o'smagan. Lekin bu ma'lumotlar aniq bir qarorga kelindi, degani emas edi. Maktab o'quv dasturlarini tekshiruvchi AQSHliklar ko'rsatmasiga qaraganda, matematika sohasidagi bilim doirasini



qilinmagan. Oddiy va xususiy maktab o'quvchilarining hisob-kitob bo'yicha bilimlari bor-yo'g'i 8 foizga farqlanishi ushbu tadqiqotlardan so'ng ma'lum bo'lgan.

AQSH Ta'lim Statistikasi Milliy Markazining ma'lumotlariga ko'ra, matematika sohasida dunyoning 38 mamlakatida tadqiqot o'tkazilgan. Ushbu tadqiqot natijalari esa quyidagicha: matematika bo'yicha o'quvchilarning o'lashtirish ko'rsatkichlari amerikaliklarda - 502, rossiyaliklarda - 526, tayvandliklarda - 585, moldaviyaliklarda - 469, litvaliklarda - 482, finlarda - 520, isroilliklarda - 466, angliyalik bolalarda esa - 496 ball deb topilgan.

Amerika maktablarida tahsil olayotgan chet ellik o'quvchilarga so'rovnomalar berilganda, ularning 29 foizi Amerika maktablarida o'qish oson, 56 foizi esa «birmuncha osonroq» deb javob berishgan. Ularning 50 foizi uy vazifasi uchun ko'p vaqt ketmasligini ta'kidlashgan. Qizig'i shundaki, amerikaliklarning bu boradagi ko'rsatkichlari ham xuddi shunday.

Amerikada bilim olayotgan chet ellik o'quvchilarning bilimlari matematika bo'yicha amerikaliklardan ustun bo'lsa-da, lekin Amerika o'quvchilari ularni sport sohasida ortda qoldirib ketar ekanlar.

Internet xabarlarini asosida GULYUZ tayyorladi.

Gazetaning navbatdagi soni 22-avgustda chiqadi.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
Nurxon NAFASOV,  
Ergashvov SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 14 530  
Buyurtma N: J 1497

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek ESHCHANOV.  
Navbatchi:  
Jamila ERDONOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38  
144-38-10  
144-63-08  
Tel./ faks:  
(99871) 144-24-45